
ISTIQLOL MAHALLASIDA 10 KILOMETR YANGI ICHIMLIK SUVI TARMOG'I TORTILMOQDA



Qo'shtepa tumanining barcha hududlarida bo'lgani kabi Istiqlol mahallasida ham aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408 sonli qaroriga ko'ra Istiqlol mahalla fuqarolar yig'ini hududida toza ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, mahalla hududida 1 dona yangi tik ichimlik suvi qudug'i qazish, 1 dona quduq tozalash 2 dona yangi suv minorasi va 2 dona yangi suv nasosi o'rnatish, 10 kilometr yangi ichimlik suvi tarmog'i tortish ishlari "XXI-ASR" MChJ tomonidan bajarilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-05-17 14:19:25